

“TASDIQLAYMAN”
Qashqadaryo viloyat statistika
boshqarmasi boshlig'i

Sh. Tayloqov
2024-yil “ ”

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik
statistikasi bo'limsi to'g'risida
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Qashqadaryo viloyat statistika Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'limining maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari huquq va majburiyatları, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Bo'limi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4 martdagи “Qashqadaryo viloyat statistika faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Qashqadaryo viloyat statistika (keyingi o'rinnarda statistika agentligi deb ataladi) markaziy apparatining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.
3. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining “rasmiy statistika to'g'risida”gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “Qashqadaryo viloyat statistika to'g'risida”gi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.
4. Boshqarma ishbilarmonlik muhiti va tadbirkorlik statistikasi ishlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatini statistika agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tumanlar va shaharlar statistika bo'limlari (keyingi o'rinnarda hududiy statistika organlari deb ataladi) bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.
5. Boshqarma o'z faoliyatini statistika agentligi direktori rahbarligida amalga oshiradi.

Boshqarma o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha statistika agentligi direktorining iqtisodiy statistika bo'yicha o'rribosariga bo'ysunadi.

2-bob. Bo'limining vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Bo'limining asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) *ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash, shuningdek faoliyatni muvofiqlashtirish va funksional tartibga solish sohasida:*

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO modellari asosida) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etishni ta'minlaydi;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning talablarini o'rganishni hisobga olgan holda istiqbolli maqsadlar va yo'nalishlar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni joriy etib borish;

statistika ishlari dasturining Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasiga oid qismi bo'yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasi bo'yicha tahliliy salohiyatni mustahkamlash, statistika ishlari dasturining mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish, uning mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tarkibiy va bozor islohotlari, iqtisodiyoti tarmoqlari va sektorlarida islohotlarning borishini tavsiflovchi tegishli maqsadli ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligini oshirish bo'yicha zarur choralarmi ko'rish;

statistika tamoyillariga rioya etilishini va ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari tadbirkorlik statistikasi sohasi bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta'minlash;

ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihamiga Boshqarma vakolati doirasidagi takliflar ishlab chiqishda ishtiroy etish.

b) xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan ishbilarmonlik muhim kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi metodologiyasini hamda statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish sohasida:

makroiqtisodiy, tarmoq va hududiy darajalarda o'rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qamrovini kengaytirishga qaratilgan ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishslashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish yo'li bilan statistik kuzatuvlar tizimini umum qabul qilingan xalqaro amaliyatga yana-da moslashtirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasida xolis, sifatlari va dolzarb hisobot ma'lumotlarini tayyorlashni muvofiqlashtirish va idoraviy kuzatuvlar shakllarini kelishishda ishtiroy etish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'yicha jamiyat ehtiyojlariga muvofiq xalqaro me'yorlar va qoidalar hamda ilmiy ishlanmalarga asoslangan holda axborotlarni tayyorlash metodologiyasini, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash, saqlash, tahlil qilish va yetkazib berish tizimini takomillashtirish;

jamiyat ehtiyojlariga muvofiq ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish, xalqaro tavsiyalar asosida ko'rsatkichlarni hisoblash metodikalarini doimiy ravishda takomillashtirishni amalga oshirish.

v) ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishslash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:

statistika ishlari dasturining ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasiga oid qismini bajarilishini ta'minlash;

mamlakatni, uning mintaqalarini, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan statistika kuzatuvlarini Boshqarma vakolati doirasida tashkil etish va amalga oshirish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasiga oid statistika agentligi hisobotlarini elektron ko‘rinishda, zarur hollarda qog‘oz ko‘rinishida yig‘ishni va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarning statistik hisob-kitoblarini amalga oshirish hamda dastlabki statistik tahlilini olib borish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo‘yicha statistik hisobot ko‘rsatkichlarining va o‘tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchhliliqi va xolisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkoraligni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta’minalash;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo‘yicha statistik ishlarni tashkil etishning statistik axborotlarini yig‘ish, qayta ishslash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy ijro hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimini yaratish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasiga oid statistika hisoboti ko‘rsatkichlarini ishonchli taqdim etishda har tomonlama ko‘maklashish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo‘yicha axborot-statistik ma’lumotlar bazasini shakllantirish, yuritish va yangilab borishni amalga oshirish, foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga doir tushuntirishlar berish;

olangan statistika ma’lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot ma’lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko‘rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslikni, davlat sirlariga ega bo‘lgan statistika ma’lumotlarining himoya qilinishini ta’minalash;

qonunchilikka muvofiq, Boshqarma ish faoliyati jarayonida vujudga kelgan arxiv hujjatlarini saralash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish;

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasiga oid maxfiy statistik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta’minalash.

g) belgilangan tartibda davlat organlari, yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar va aholini ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasiga oid ma’lumotlar bilan ta’minalash sohasida:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlari ijrosi yuzasidan Boshqarma vakolati doirasida yillik va choraklik statistik hamda tahliliy materiallarni tayyorlashda ishtiroy etish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlarni statistika agentligi organlari, boshqa davlat organlari, xalqaro tashkilotlar nashrlarida joylashtirish uchun va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlash;

xorijiy statistika organlari bilan ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'yicha ochiq statistik axborotlarni almashish, respublikaning rivojlanishi to'g'risida materiallarni xalqaro statistik to'plamlarda chop etish uchun axborotlarni tayyorlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlash;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasiga oid statistik kuzatuvlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etish.

7. Boshqarma o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

statistika tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning respublikada ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik sohasini to'liq olib beruvchi ko'rsatkichlardan erkin foydalanishlarini ta'minlaydi;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi amaliyotiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini joriy etishni amalga oshiradi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik sohasi bo'yicha asosiy statistik ko'rsatkichlarning takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'yicha axborotlardan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida ko'rsatkichlardan erkin foydalanish imkonini beruvchi statistik ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishda va yuritishda ishtirok etadi;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik sohasi bo'yicha statistika agentligi kuzatuvi shakllarini elektron shaklda taqdim etish va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarini tashkil etadi hamda bu yo'nالishda hududiy statistika organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

Boshqarma va uning tarkibiy bo'linmalarining ish usullari va shakllarini yana-da takomillashtirish, fuqarolar va yuridik shaxslar murojaatlariga o'z vaqtida munosabat bildirish, xodimlarning yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun shaxsiy mas'uliyatlarini oshirish sohasida:

Tadbirkorlik statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo'limi, Tadbirkorlik subyektlarini tizimli statistik kuzatuvlari bo'limi, Tadbirkorlik faoliyatining tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish bo'limining o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarini samarali amalga oshirish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasi metodologiyasi, statistik ishlarni tashkil etish va ularni bajarish masalalari bo'yicha statistika agentligi bo'linmalariga, hududiy statistika organlariga amaliy yordam ko'rsatadi;

statistika ishlari dasturiga muvofiq, agentlik rahbariyati topshirig'iga asosan ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

Bo'limining uslubiy, iqtisodiy, tashkiliy va statistik ishlari rejalarini shakllantiradi va ularning ijrosini ta'minlaydi;

Tadbirkorlik statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish bo'limi, Tadbirkorlik subyektlarini statistik kuzatuvlari bo'limi, Tadbirkorlik faoliyatining tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish bo'limiga uslubiy va tashkiliy rahbarlikni amalga oshiradi;

Boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni to'liq, o'z vaqtida va sifatlari bajarilishini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan iqqisodiyotning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini, O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini, iqtisodiy islohotlarni yana-da chuqurlashtirish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarda belgilangan vazifalarni hamda mamlakatdagi ijtimoiy va iqisodiy rivojlanishning tendensiyasini (holatini) hisobga olgan holda ta'minlaydi.

Boshqarma belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

3- bob. Bo'limining huquqlari va javobgarligi

8. Boshqarma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududiy statistika boshqarmalari tomonidan ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasiga oid statistika kuzatuvi shakllarini o'zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarinnng idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo'yicha takliflar berish;

statistika maqsadlarida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa yuridik shaxslardan (zarurat bo'lganda ularning vakolatxona va filiallaridan) belgilangan tartibda statistika hisobotini olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, xususiy tadbirkorlar faoliyatining davlat statistika kuzatuvlarini olib borish va olingen ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

Boshqarmaga yuklangan vazifalar, funksiyalar va statistik ishlarni bajarish maqsadida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, tashkilotlardan belgilangan tartibda ma'lumot va tushuntirishlar olish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasiga oid metodik, statistik ishlar va rasmiy statistik ma'lumotlar yuzasidan axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'yicha ma'lumot va ko'rsatkichlardan noo'rin foydalanish va ularga noto'g'ri sharh berish holatlarini ko'rib chiqish va ular yuzasidan tushuntirish berish;

qabul qilib olinayotgan statistik ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va xolisligini ekspertizadan o'tkazish;

statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va yig'ma statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasiga oid masalalar yuzasidan xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, seminar va yig'ilishlarda, shuningdek xalqaro seminar va yig'ilishlarda ishtirok etish;

ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi kuzatuvarlarini tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha agentlik rahbariyatiga takliflar kiritish;

statistika ishlari dasturi, statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, statistika ishlari ish rejali, Boshqarma ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo'yicha statistika agentligi rahbariyatiga takliflar kiritish;

Boshqarma vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha agentlik boshqarmalari va bo'limlari bilan hamkorlik qilish;

Boshqarma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

9. Boshqarma quyidagilar uchun javobgar:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

statistika prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyatga muvofiq foydalilanayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Boshqarma xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

4-bob. Bo'limining tuzilmasi

10. Bo'limining tuzilmasi o'z ichiga Boshqarma boshlig'ini, shuningdek:

Tadbirkorlik statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish bo'limi;

Tadbirkorlik subyektlarini statistik kuzatuvlari bo'limi;

Tadbirkorlik faoliyatining tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish bo'limini oladi.

Har bir bo‘lim tarkibiga bo‘lim boshlig‘i, bosh va yetakchi mutaxassislar kiradi.

11. Boshqarma va uning tarkibiga kiruvchi bo‘limlar ishiga Boshqarma boshlig‘i rahbarlik qiladi.

12. Boshqarma boshlig‘i, Boshqarma boshlig‘i o‘rribosari, bo‘lim boshliqlari va mutaxassislari statistika agentligi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

13. Tadbirkorlik statistikasi bo‘yicha yig‘ma tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish bo‘limi quyidagilarni amalga oshiradi:

tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi to‘g‘risida yillik va choraklik statistik va analistik materiallarni tayyorlash;

oligan statistik ma’lumotlar asosida iqtisodiyot sohalarining rivojlanishi holati to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar va press-relizlarni tayyorlash;

oligan statistik ma’lumotlar asosida, hududlarning iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va darajasini aks ettiruvchi tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash;

Respublika va hududlar bo‘yicha ishbilarmonlik muhiti statistikasi ma’lumotlarini o‘zaro bog‘liklikda tahlil qilish;

xalqaro statistika tashkilotlari tomonidan statistik ma’lumotlarni tarqatishning zamonaviy tendensiyalari va konsepsiyalarini o‘rganish asosida ochiq statistik-tahliliy ma’lumotlarni agentlik veb-saytida nashr etilishi uchun taqdim etish;

ko‘rsatkichlarning dinamik qatorlarini yuritish;

ma’lumot taqdim etish va axborot-tushuntirish ishlarini qo‘sghan holda respondentlar va ma’lumotlarning foydalanuvchilari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

14. Tadbirkorlik subyektlarini statistik kuzatuvlari bo‘limi quyidagilarni amalga oshiradi:

tadbirkorlik statistikasi bo‘yicha kuzatuvlarni olib borish, tayyorlash va takomillashtirishda ishtiroy etish;

tadbirkorlik subyektlari, asosiy fondlarning harakatini, korxonalarining moliyaviy barqarorligini va rivojlanishini aks ettiruvchi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishslash, saqlash, tahlil qilish va yetkazib berish;

hududiy statistika organlari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish;

ma’lumot taqdim etish va axborot-tushuntirish ishlarini qo‘sghan holda respondentlar va malumotlarning foydalanuvchilari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

15. Tadbirkorlik faoliyatining tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish bo‘limi quyidagilarni amalga oshiradi:

tadbirkorlik statistikasi bo‘yicha tanlanma kuzatuvlarini olib borish uchun statistika instrumentariylarini tayyorlash va takomillashtirish;

tadbirkorlik subyektlarini tanlanma kuzatuvlarni tashkil qilish;

tadbirkorlik subyektlari ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash, amaldagi statistik ma'lumotlar bilan taqqoslashni o'tkazish;

hududiy statistika organlari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish;

ma'lumot taqdim etish va axborot-tushuntirish ishlarini qo'shgan holda respondentlar va ma'lumotlarning foydalanuvchilari bilan o'zaro hamkorlik qilish.

5-bob. Bo'limining faoliyatini tashkil etish

16. Bo'limining ishi O'zbekiston Respublikasining "statistika to'g'risida"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan statistika ishlari dasturi, statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, Qashqadaryo viloyat statistika to'g'risida nizom, mazkur Nizom, statistika agentligi direktorining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek statistika agentligining ish rejalari, Bo'limining ish rejalari va Boshqarma xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limining ish rejasi statistika agentligi direktori tomonidan tasdiqlanadigan statistika agentligining ish rejalari asosida shakllantiriladi va Direktorning iqtisodiy statistika bo'yicha o'rribbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarning funksional vazifalari Boshqarma boshlig'i tomonidan bo'linmaga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va Direktorning iqtisodiy statistika bo'yribbosari tomonidan tasdiqlanadi.

17. Boshqarma boshlig'i:

Boshqarmaga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, o'z o'rribbosari, bo'lim boshliqlari va mutaxassislarning ishini tashkil qiladi, Boshqarmaga yuklangan vazifa va funksiyalarining lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limining tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazolash chorralari bo'yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Bo'limining ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va Direktorning iqtisodiy statistika o'rribbosariga tasdiqlash uchun kiritadi;

Boshqarma xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Statistika agentligining yig'ilishlari va majlislarida, shuningdek Statistika agentligi rahbariyatining topshirig'iga binoan Boshqarma tasarrufiga kiruvchi masalalar bo'yicha idoralararo ishchi guruhlar ya kengashlar faoliyatida ishtiroy etadi;

Ishbilarmonalik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi sohasida normativ va metodologik hujjatlarni va statistika kuzatuvlari shakllari loyihamini ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

Statistika agentligi direktori va uning o'rribosarlarining Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasiga oid topshiriqlariga muvofiq materialarni tayyorlaydi, qo'yilgan vazifalarni yana-da samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

Boshqarma ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'radi;

Boshqarma kadrlari zahirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zahirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta'minlaydi;

Boshqarma xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo'riqnomaga berish bo'yicha yig'ilishlar;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta'minlaydi;

18. Boshqarma boshlig'i vaqtinchalik bo'limgan taqdirda uning vazifasini Boshqarma boshlig'i o'rribosari bajaradi.

19. Boshqarma boshlig'i o'rribosari:

mutaxassislarning ishini muvofiqlashtiradi va Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari tadbirkorlik statistikasi faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha hududiy statistika organlari bilan hamkorlikni tashkil qilish uchun shaxsan javob beradi;

mutaxassislar tomonidan ma'lumotnoma, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni, shuningdek, hududiy statistika organlari bilan ishlash, bo'limga yuklangan masalalar bo'yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

20. Bo'lim boshlig'i:

bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ularning ishini muvofiqlashtiradi, bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Statistika agentligi va Bo'limining ish rejalarida ko'zda tutilgan masalalarni o'rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

bo'lim mutaxassislari tomonidan ma'lumotnoma, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni, shuningdek bo'limga yuklangan vazifalar bo'yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

Statistika sohasida ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha bo'lim mutaxassislari tayyorlagan takliflarni umumlashtiradi;

bo'limga yuklangan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining

qarorlarini amalga oshirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar, tashkiliy chora-tadbirlar yoki nazorat rejalarini tayyorlash va tasdiqlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

Boshqarma boshlig'i bilan birga bo'lim faoliyatini takomillashtirish, bo'lim ishlarining samaradorligi darajasini oshirish, ish uslubi va metodlarini, uni tashkil qilishni yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

Bo'limining o'zi boshchilik qiladigan bo'limi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha hududiy statistika organlariga maslahat yordami ko'rsatadi;

xodimlar tomonidan davlat va tijorat siriga rioya qilinishini hamda bo'limga kiruvchi materiallarni va bo'limdan chiquvchi materiallarning nusxalarini saqlanishini ta'minlaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalarni muhokama qilishda idoralar, korxonalar va tashkilotlarda statistika agentligi manfaatlarini ifodalaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqilishini (zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida) tashkil qiladi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va statistika agentligi rag'bariyatiga kiritadi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

21. Bo'lim bosh mutaxassis:

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjatlar loyihibarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning metodologik nashrlari va Internet tarmog'idagi materiallarni o'rGANISH asosida statistika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

biriktirilgan muayyan hudud bo'yicha statistika hisobotlari belgilangan muddatlarda sifatli taqdim etilishini nazorat qilish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va jamlanma ma'lumotlarni tayyorlaydi;

tadbirkorlik statistikasi bo'yicha hisobotlarning elektron ma'lumotlar bazasida saqlanishini ta'minlash va asosiy statistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik qatorlarni yuritish ishlarini amalga oshiradi;

tadbirkorlik statistikasi bo'yicha statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar hajmini baholash uchun zarur bo'lgan materiallarni tayyorlaydi;

tadbirkorlik statistikasi bo'yicha statistika uslubiyati va instrumentariylarini tayyorlash va takomillashtirish jarayonida ishtirok etadi;

statistik kuzatuv shakllarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yigish va qayta ishlash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchliliginini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar beradi;

statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish bo'yicha dasturiy ta'minotlarni sinovdan o'tkazadi;

statistik to'plamlar, ma'ruzalar, tezkor axborotlar uchun hamda foydalanuvchilardan kelgan so'rovlар uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlaydi.

bo'lim boshlig'inинг topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

22. Bo'lim yetakchi mutaxassisи:

biriktirilgan muayyan hudud bo'yicha statistika hisobotlari belgilangan muddatlarda sifatli taqdim etilishini nazorat qilish, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va jamlanma ma'lumotlarni tayyorlaydi;

tadbirkorlik statistikasi bo'yicha hisobotlarning elektron ma'lumotlar bazasida saqlanishini ta'minlash va asosiy statistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik qatorlarni yuritish ishlarida ishtirok etadi;

tadbirkorlik statistikasi bo'yicha statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar hajmini baholash uchun zarur bo'lgan materiallarni tayyorlashda ishtirok etadi;

tadbirkorlik statistikasi bo'yicha statistika metodologiyasi va instrumentariylarini tayyorlash va takomillashtirish jarayonida ishtirok etadi;

statistik kuzatuv shakllarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishslash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchliliginini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar beradi;

statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish bo'yicha dasturiy ta'minotlarni sinovdan o'tkazishda ishtirok etadi;

raxbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.